



O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

Vaziyat

2025-yil
1-may
№ 18 (1011)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

DOLZARB VAZIFA

Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirda Favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i, polkovnik S.Zuparov, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi o'ta og'ir jinoyatlarni tergov qilish bo'limi katta tergovchisi adliya podpolkovnigi Nodir Eshmatov, vazirlik markaziy apparati xodimlari hamda Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasi shaxsiy tarkibi ishtirok etdi.

Tadbir davomida hozirgi kunda huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularga qarshi kurashish davlatimiz siyosatining asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelayotgani aytili. Qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yuzasidan ma'lumotlar berildi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tuzilmalarida sodir bo'lgan jinoyatchiliklar va ularga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar xususida so'z yuritildi. Uchrayotgan jinoyatlar va ularning sabablari haqida atroflicha to'xtalib, barcha ogohlilikka chaqirildi. Harbiy xizmatchi va xodimlarning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularda yuksak an'analariga



hurmat tuyg'usini shakllantirish, huquqiy savodxonlik, bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish kerakligi bo'yicha tavsiyalar berildi. Turli zararli illatlarning oldini olish borasida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishlari hamda xizmat faoliyatlarini yanada samarali olib borishlari kerakligi tushuntirildi.

Ta'kidlandiki, jinoyat shaxs huquqlarini poymol qiladigan, davlat va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazadigan ijtimoiy xavfli omil hisoblanadi. Jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, shaxsiy tarkib o'rtasida sog'lom muhitni shakllantirish maqsadida profilaktika kunlari davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda huquqbuzarliklarga qarshi kurash borasida uchrashuvlar tashkil etilmoqda.

Qayd etilganidek, jinoyatlarni profilaktika qilish masalasi dolzarb bo'lib, uning tizimli yo'lga qo'yilganligi jinoyatlar soni kamayishiga asosiy ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Jinoyatni aniqlash, ochish hamda tegishli tartibda javobgarlik masalasini hal etishga nisbatan, uni oldini olish, sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik juda muhimdir.

Davlat, jamiyat va shaxslar birlashuvi asosidagina jinoyatchilik sonini kamaytirish hamda ko'zlangan maqsadga yetishish mumkin. Bu o'rinda, sodir etilgan har bir jinoyat uchun jazoning muqarrarliligi ham jinoyat sodir etish holatlari kamayishiga xizmat qiladi.

Shunday ekan, harbiy xizmatchilarning huquqiy savodxonligini oshirish choralarini ko'rib borish, har bir huquqbuzarlik holatiga murosasizlik bilan munosabat bildirish zarurdir. Ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy yoshlar tarbiyasini: "Hayot-mamot masalasi", – deb ta'riflagan. Tarbiyasi mo'rt insondan jamiyat, mahalla yoki oila uchun hech qanday naf bo'lmaydi. Biror shaxsning jinoyatga qo'l urishi tarbiyada yo'l qo'yilgan xato va befarqlikning achchiq in'ikosidir. Harbiy xizmatchilar, ayniqsa, sohaning yosh vakillari tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar emas, balki ezgu maqsadlar va bunyodkorlik tashabbuslariga yo'naltirilgan amaliy ishlar yuzaga chiqishi uchun barchamiz birdek harakat qilishimiz zarur.

Tadbir yakunida huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha bir qator dolzarb vazifalar belgilandi.

Anvar QOBILOV.



ILLATGA YO‘L QO‘YMANG!

“Korrupsiya – jamiyat tanasidagi saraton”. Hududlarda ayni shu mavzuda korrupsiyaga qarshi profilaktik tadbirlar tashkil etildi.

Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi FVB, Toshkent viloyati FVB hamda FVV Akademiyasi, Maxsus vazifalar bo‘yicha Respublika qutqaruv markazida mas‘ul xodimlar ishtirokida huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillarini jalb qilgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yuzasidan profilaktik tadbirlar o‘tkazildi.

Xodimlar orasida tartib-intizomni mustahkamlash bo‘yicha profilaktik ishlar olib borilib, bunday illatlarning ayanchli oqibatlari haqida tushuntirishlar berildi.

Bugungi globallashuv zamon, mintaqalar va davlatlararo integratsiya jadallashib borayotgan murakkab bir sharoitda korrupsiya barcha mamlakatlarda ham qator muammolarni keltirib, jamiyatni ich-ichidan yemirib, parokanda qilib tashlash xavfini vujudga keltiryapti. Jamiyat kushandasi-ga aylanib borayotgan korrupsiya tufayli ta‘magirlik, tovlamachilik, firibgarlik kabi illatlar ko‘payib, mamlakatimizda ularga qarshi kurash jadal olib borilmoqda.

Ularga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lmish aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatimizda bu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish – eng dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Tadbir yakunida korrupsiyaning og‘ir oqibatlarini o‘zida aks ettirgan videorolik namoyish etildi.

FVV axborot xizmati.

FVV Fuqaro muhofazasi institutida BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi xodimlari uchun maxsus o‘quv-ko‘rgazmali mashg‘ulotlar tashkil etildi. Mazkur tadbir BMT xodimlarining favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini oshirish va aholi xavfsizligini ta‘minlashga qaratildi.

AHOLI XAVFSIZLIGI YO‘LIDA

Ushbu mashg‘ulotlarda BMT vakillaridan iborat xodimlar Favqulodda vaziyatlar simulyatsiya markazida bo‘lib, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Mashg‘ulotlar davomida BMT xodimlari FVMSda tashkil etilgan zilzila tarixi muzeyi bilan yaqindan tanishdilar. Muzeyda O‘zbekiston va jahon miqyosida sodir bo‘lgan zilzilalar, ularning oqibatlari va bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, ishtirokchilar bilimlarni sinash va relaksatsiya xonalarida ham bo‘lishdi.

Markazning eng diqqatga sazovor joylaridan biri bu – zamonaviy trenajyorlardir. Ushbu trenajyorlar yordamida BMT vakillari tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni, jumladan, zilzila, suv toshqini, yong‘in va kimyoviy xavfni imitatsiya qiluvchi simulyatsiyalarda ishtirok etib, amaliy ko‘nikmalarini mustahkamladilar.

Tadbir davomida qayd etilganidek, zilzilalar, suv toshqinlari, yong‘inlar, kim-

yoviy avariylar insoniyatga katta talafotlar yetkazishi mumkin. Shuning uchun favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir hudud o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib, xavfni baholashi va tegishli chora-tadbirlarni rejalashtirishi zarur. BMT vakillari o‘quv-ko‘rgazmali mashg‘ulotlar tashkilotchilariga minnatdorchilik bildirishdi va olingan bilim va ko‘nikmalar ularning kundalik ishlarida, ayniqsa, aholiga yordam ko‘rsatishda asqatishiga ishonch bildirishdi.

Ushbu tadbir FVV va BMT o‘rtasidagi favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi hamkorligining yana bir muhim namunasidir. Tomonlar kelgusida ham ushbu sohada hamkorlikni davom ettirishga kelishib oldilar.

A.MUSTAFOYEV,

Favqulodda vaziyatlar simulyatsiya markazi boshlig‘i, podpolkovnik.

SAMARALI HAMKORLIK



Koreya yong‘inga qarshi sanoat va texnologiyalar instituti prezidenti Kim Chang Djin rahbarligidagi delegatsiya O‘zbekistonga amaliy tashrif buyurdi.

Ushbu tashrifdan ko‘zlangan maqsad esa O‘zbekistonda yong‘in-texnik mahsulotlarining sifatini boshqarishni takomillashtirish, rivojlanishga rasmiy yordam ko‘rsatish (ODA KOICA) dasturi doirasida grantni qo‘lga kiritishda ko‘maklashishdan iboratdir.

Tashrif davomida delegatsiya a‘zolarining Favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o‘rinbosari polkovnik S.Zuparov bilan uchrashuvi tashkil etildi. Mazkur tadbir davomida (ODA KOICA) dasturining birinchi bosqichi doirasida amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi rejalar xususida so‘z yuritildi. Hamkorlik salohiyatidan yanada samarali foydalanish, yirik yuqori texnologik loyihalarni aniqlash va ilgari surish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Zamonaviy xorijiy tajribalarni jalb qilgan holda soha mutaxassislarining kasbiy ko‘nikma va bilimlarini oshirish, shuningdek, innovatsion ishlanmalar xususida ham aytib o‘tildi. E’tirof etildiki, o‘zbek va koreys xalqlarining o‘xshash tomonlari ko‘p. Ochiq yuzlik, izlanish va mehnatdan qochmaslik kabi xususiyatlar ko‘p yillik qadriyat sanaladi. Maqsad, qarash va fikrlarning bir-biriga yaqinligi samarali muloqotning davomli bo‘lishini kafolatlaydi.

Koreya Xalqaro hamkorlik agentligining (KOICA) davlat hamkorligi dasturi (ODA) doirasida amalga oshiriladigan yangi hamkorlik loyihasi ikkinchi bosqichda ishtirok etish maqsadida Koreya yong‘inga qarshi sanoat instituti va O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi o‘rtasida bayonnoma imzolandi.

Z.Buvaraimov,

t.f.f.d. (PhD), kapitan.

FVV Akademiyasi 2025-yilning 26-apreldan 26-mayga qadar quyidagi pedagog lavozimlariga tanlov e‘lon qiladi:

“Tillar” kafedrası” bo‘yicha:

1 nafar – kafedra dotsenti (ingliz tili fani bo‘yicha) lavozimi.

“Umumkasbiy va umumilmiy fanlar” kafedrası bo‘yicha:

1 nafar – kafedra professori (issiqlik texnikasi, amaliy mexanika fanlari bo‘yicha) lavozimi.

Tanlovda qatnashishni xohlovchilar Akademiya boshlig‘i nomiga ariza va unga ilova qilib quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

– kadrlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaqa;

– oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi diplomlar nusxasi;

– ilmiy daraja (shu jumladan, fan doktori (DSc), falsafa doktori (PhD), fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga egaligi to‘g‘risida guvohnoma;

– ilmiy unvonga egaligi to‘g‘risida guvohnoma;

– ilmiy ishlar (monografiya, maqola, tezis va ma‘ruza) va ixtirolar mavjud bo‘lgan taqdirda ularga tegishli diplomlar, attestatlar nusxalari va ilmiy ishlar nusxasi va ro‘yxati;

– malaka oshirish to‘g‘risidagi guvohnomalar nusxasi;
– ingliz tili o‘qituvchilari xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar nusxalari.

Lavozimlar bo‘yicha talablar:

professor lavozimini egallash uchun tanlovda qoidaga ko‘ra, professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Professor lavozimini egallash uchun tanlovda fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan shaxs kamida 5 yil ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo‘lishi, ushbu kafedraning ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari muallifi bo‘lish sharti bilan bir muddatda ishtirok etishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlov, qoidasiga ko‘ra, dotsent ilmiy unvoniga, katta ilmiy xodim yoki fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo‘yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Bir muddatda dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda, shuningdek, tegishli ilmiy unvonga va ilmiy darajaga ega bo‘lmagan, biroq ushbu mutaxassislik bo‘yicha kamida 3 yillik amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan, mazkur kafedraning ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari muallifi bo‘lgan yuqori malakali mutaxassis ham qatnashishi mumkin.

Manzil: Toshkent shahar, Yangiheyot tumani, Do‘stlik ko‘chasi, 5-uy.

Telefon: (71) 258-56-57, (97) 764-34-87.

DIQQAT E‘LON

JADIDCHILIK HARAKATINING

paydo bo'lishi va uning tarqiqiyoti

Jadidchilik yoki jadidizm XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy harakat hisoblanadi. Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.



Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Bir tomondan o'zbek jadidchilik harakatiga oziq bergan kuchlar millatning o'tmishida yashab o'tgan buyuk alloma va mutafakkirlar bo'lib, ularning ma'naviy-ilmiy merosini o'rganish orqali xalqimiz qanchalik yuksaklikka erishgan ekan, jadidlar ham o'tmish ma'naviyatini bilish va uning ayrim muammoli o'rinlarini isloh qilish yo'lidan borganlari ma'lum haqiqat. Isloh qilish uchun esa har bir ma'naviy merosning o'z davri va shu kundagi ahamiyatini belgilash, uning kelajakka daxldorlik darajasini aniqlash hamda ularni xalqning milliy yuksalishi uchun o'ziga xos shakllarda yetkazib berish zarur edi.

Jadidlar boshqa mustamlakada qolgan xalqlar singari, yurtini ozod qilish yo'lida birovlardan yordam kutganlarini ham qoralash mumkin emas. Lekin hayot shuni ko'rsatdiki, jadidlar na islomchilik, na turkchilik bayrog'i ostida birlashib, mustamlaka asoratidan ozod bo'lish qiyin ekanligini anglab yetdilar.

Shu o'rinda aytish joizki, jadidchilik harakati asoschisi, qrim-tatar ziyolisi Ismoilbek G'aspirali birinchi bo'lib mustamlakachining ruslashtirish siyosati va uning oqibatlarini avvaldan anglab yetib, Rossiya hududida yashaydigan musulmonlarning o'qib-o'rganib, shunga yarasha harakatda bo'lishlari lozimligini ta'kidladi. Behbudiy va Munavvarqori G'aspiralini ustoz deb bilib, uning fikrlariga tayandilar, albatta. O'sha davrning ilg'or kuchlari ayniqsa, ziyolilar mahalliy aholining dunyodan ortda qolayotganini sezib, jamiyatni isloh qilish zarurligini anglab yetdi. Jadidchilik mohiyatan siyosiy harakat edi.

Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'ika ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said Ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Buxoroda Abdurauy Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Xivada Boboovun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma'rifatparvar, Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.

Jadidchilikning asosiy g'oyalari va maqsadlari Turkistonni o'rta asrlar qoloqligi va diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, xalqni ma'rifatli qilish, Turkistonda muxtoriyat hokimiyatini o'rnatish uchun kurashish, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani muomalaga kiritish, milliy armiya qurish edi. Keyinchalik Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada erkin va ilg'or fikrli kishilarning ma'lum guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-

ma'rifiy jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Jadidlar dunyoning ilg'or davlatlaridan ko'p jihatdan ortda qolgan Turkiston xalqlarini bo'lajak fojialardan ogoh etish, jamiyat hayotini inqilobiy – zo'rlik yo'li bilan emas, balki tadrijiy-ma'rifiy yo'l bilan ijobiy tomonga o'zgartirish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi, kurash usuli edi. Jadidchilik harakati o'z adabiyotini yaratishda ham orqada qolmadi. Jadidchilik adabiyoti bilan Turkiston adabiyoti tarixining yangi davri boshlandi. Behbudiyning "Padarkush" nomli teatr asari jadidchilik adabiyotida dramaturgiyaga yo'l ochgan edi. Behbudiyning fikriga ko'ra, o'qimagan, johil farzand otasining qotili bo'lishi hech gap emas. Keyingi davr jadidchilik dramaturgiyasining rivojlanishida Abdurauy Fitratning katta roli bordir. Fitrat



dramatik asarlarining mavzusini Turkiston tarixidan olgan va "tarixni gapirtirib" yoshlarni Turkiston milliy hayotiga bog'lashga harakat qilgandi. Jadidchilik adabiyoti bugungi Turkiston turk adabiyotiga ham ta'sir etgandir. Afsuski, bu kunga qadar jadidchilik fikrlari va adabiyoti dunyoning hech bir yerida turkologlar tomonidan teran tadqiq etilmagandir.

Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish – siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Jadid merosining yana bir muhim jihati ularning ta'lim sohasida sekulyarizm – dunyoviylikni targ'ib etishidir. Ular jamiyatda, eng avvalo, yoshlar orasida turli diniy e'tiqodlarni hurmat qiladigan, bag'rikenglik muhitini yaratish muhimligiga urg'u berishgan. Munavvarqori Abdurashidxonov "Taraqqiy" jurnalidagi maqolasida bag'rikenglik va inklyuzivlikni targ'ib qiluvchi ta'lim tizimi zarurligini ta'kidlab: "Ta'lim diniy aqidalar va xurofotlardan holi bo'lishi,

o'quvchilarning o'z bilimlarini oshirishi va dunyoqarashini shakllantirishi mumkin bo'lgan makonni ta'minlashi kerak", – degan edi.

Jadidlarning eng e'tiborga olgan masalalaridan yana biri shuki, Turkistonda xotin-qizlarning savodxonlik darajasi juda ham past ekanligi, ular faqatgina otinoyilar o'z uylarida ochgan uy maktablarida o'qib, o'qish davomida 3-4 tagina diniy suralarni yodlab, so'ng ular uy ishlari bilan shug'ullanishi, nari borsa tikish-bichishni o'rganishi, keyin esa jamiyatda qat'iy qonun-qoidaga aylangan erta oila qurish majburiyatini olib, shu bilan bir umr to'rt devor ichida yashashlarini qattiq tanqid qilib, erkak va ayollar teng haq-huquqqa ega ekanliklari, bola tarbiyasi bilan asosan onalar shug'ullanganliklari bois, millat taqdiri uchun ularning bilim saviyasini ko'tarish va yangi maktablar tashkil etishni yoqlab chiqdilar.

O'zbeklarda bola tarbiyasi ham milliy qadriyatlarga asoslangan bo'lib, jadidlarning ham e'tibor markazida turgan. Ular avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmati ekanligi, qachonki yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlar tarbiyalansa, insoniyat bo'ynidagi xizmat majburiyatidan soqit bo'lishi, kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi, deb uqtirishgan. Abdurauy Fitrat: "Xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzandlar, xushaxloq imon sohibi bo'lgan otanadan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi. Binobarin, kuyov va kelin xushaxloq bo'lishlari eng yaxshi fazilatdir", – deganda tarbiyali farzandlar axloqli oilada tug'ilishiga ishora qilgan. Munavvarqori Abdurashidxonov esa "Adibus-soniy" asari orqali tarbiyali bolaga ta'rif berib: "Tarbiyali bola ulug'larni izzat va hurmat qilur. O'zi barobarig'a yaxshi muomala qilur. Va o'zidan kichiklarga shafqat va marhamat qilur. Har kimning qadrini bilur. O'zidan rozi qilmoqg'a harakat qilur. Qo'lidan kelganicha boshqa insonlarga yordam berur. Insonlikg'a yarashgan ishlardan o'zini tortmas. Yarashmag'an ishlarning qancha foydalik bo'lsa ham yaqiniga bormas. O'zi bilmaydurg'on so'zlarga va qo'lidan kelmaydurg'on ishlarga aslo aralashmas. Har ishda to'g'rilikdan ayrilmas. Doimo yaxshini yaxshi, yomonni yomon der. Har so'zni vaqtig'a va joyig'a qarab so'zlar", – deb yozgan.

Muxtasar aytganda, jahon taraqqiyyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida va yosh avlodni ma'rifatli qilish, ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoatvaqishloqxo'jaligisohalariningzamonaviybilimdon, mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinliki, ular Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan, chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lda yoshlar asosiy kuch bo'lganini tushunib, ularning saviyasini oshirish uchun ko'p sa'y-harakatlar qilganlar.

Anvar QOBILOV tayyorladi.



PROFILAKTIKA

Favqulodda vaziyatlarning oldini olishda targ'ibot ishlari muhim o'rin tutadi. Chunki har qanday favqulodda holatning oqibatlarini kamaytirish yoki umuman oldini olishning eng samarali usuli bu – aholining xabardorligi va tayyorgarligini oshirishdir. Buning uchun davlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va OAV orqali tizimli ravishda targ'ibot ishlarini olib borish talab etiladi.

Favqulodda vaziyatlar to'g'risida to'liq va aniq ma'lumot berish aholining xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Yer qimirlashi, yong'inlar, suv toshqinlari, texnogen avariylar va boshqa xavflar haqida oldindan ogohlantirish orqali ularning zararli oqibatlarini kamaytirish mumkin.

Masalan, yomg'ir mavsumida sel va toshqin xavfi bor hududlarda aholini oldindan ogohlantirish va evakuatsiya rejasini tushuntirish halokatning oldini olishga yordam beradi. Shu maqsadda dovon hududida o'rnatilgan elektron axborot tablolar orqali haydovchi va yo'lovchi-

larni o'z vaqtida ogohlantirish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Aholining har bir qatlamiga qarab moslashtirilgan targ'ibot va o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish muhim. Masalan, yong'in sodir bo'lganida qanday yo'l tutish, yer qimirlashi paytida xavfsiz joyga qanday o'tish kerakligi haqida amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi kerak.

Bolalar va o'smirlar uchun multfilmlar, rangli kitoblari, interaktiv o'yinlar orqali xavfsizlik haqidagi ma'lumotlarni oson o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Har bir hududda uchrashi mumkin bo'lgan favqulodda holatlar har xil bo'lgani uchun, ularga mos ra-



vishda targ'ibot ishlarini tashkil qilish kerak. Masalan, Qamchiq dovonida ko'proq qish faslida ko'chilar va yulduzli muzlash holatlari kuzatiladi. Shu sababli bu yerda haydovchilar va yo'lovchilar uchun muzlashga qarshi tayyorgarlik choralarini haqida ko'proq ma'lumot berish lozim. Katta shaharlarda esa yong'in xavfi, zaharli moddalar tarqalishi va boshqa texnogen hodisalarga qarshi tayyorgarlik muhim. Bu faqat davlat organ-

larining vazifasi emas, balki barcha fuqarolar, jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari va OAVning ham mas'uliyatidir. Agar xavfsizlik haqidagi targ'ibot ishlari tizimli ravishda olib borilsa, favqulodda holatlarning oldini olish va ularning zararlarini kamaytirishga erishish mumkin.

Alisher QUDRATOV,
"Qamchiq" MQYQB navbatchi-dispatcherlik bo'limi xodimi, leytenant.

Sirdaryo tumani FV bo'limi xodimlari o'tgan oylarda tumandagi korxona, muassasa, tashkilot va xo'jaliklarda yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida tadbirlar o'tkazishdi.

Xalq xo'jaligi maskanlarida yong'inga qarshi holatlar bo'yicha tekshirishlar olib borildi. Yong'inning oldini olish maqsadida aholi turarjoylari, mahallalar va korxonalar ishchi-xodimlari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar va suhbatlarda kishilarga nosoz elektr uskunalardan foydalanish oqibatlari haqida tushunchalar berildi. Olov tili uchun mulkning katta-kichigi bo'lmaydi. Bunday hodisalarning sodir bo'lmashligi uchun esa fuqarolarning o'zlari tashabbuskor bo'lishi, yong'in xavfsizligi qoida talablarini bajarishlari, farzandlariga ham o'rgatishlari lozim.

Husan BERDIYEV,
Sirdaryo tumani FV bo'limi boshlig'i, mayor.



Namangan viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi va uning tarkibiy tuzilmalari shaxsiy tarkibi tomonidan ham viloyat aholisiga favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda harakat qilish tartibini o'rgatish, yong'in, ovqatdan zaharlanish, quturish va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, kirib kelayotgan yoz mavsumida suv havzalari cho'milishda xavfsizlik qoidalariga amal qilish bo'yicha tushuncha va yo'riqnomalar berish borasida bir qator tashkiliy profilaktik ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Boshqarma Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazining o'qituvchi pedagoglari tomonidan – Chortoq, To'raqo'rg'on va Kosonsoy tumanlaridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida, tashkilot-korxonalarda hamda ta'lim muassasalarida profilaktik tadbirlar amalga oshirildi.

Aholiga favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda xavfsizlik qoidalarini targ'ib qiluvchi plakatlari, eslatma va bukletlar tarqatildi.

Dilmurod ABDURAHMONOV,
Namangan viloyati FVB HFXO'M katta o'qituvchisi.

Korao'zak tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan ko'p qavatli va yakka tartibdagi uy-joylar, ijtimoiy soha obyektlari, jamoatchilik muassasalari va ishlab chiqarish sanoat korxonalarida, bozorlarda, yirik savdo majmualarida hamda aholi ko'p to'planadigan boshqa obyektlarda keng ko'lamli profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda.



Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlar, gaz va havo aralashmasidan yuzaga keladigan chaqnashlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilib, aholi o'rtasida is gazidan zaharlanish hamda boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida "xonadon-bay" tartibida aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Maqsadimiz esa favqulodda holatlarning oldini olish va favqulodda vaziyat yuzaga kelganida to'g'ri harakat qilishni o'rgatishni ta'minlashdan iborat.

Q. KUSHETEROV,
Korao'zak tumani FV bo'limi kichik inspektori.

Hazorasp tumanida kichik biznes subyektlari tomonidan qurilish ishlarining faollashgani kuzatilmoqda. Bu esa ushbu sohada kichik tadbirkorlik subyektlari muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, qurilish ishlarining umumiy hajmi 5,3 milliard so'mga oshgan. Joriy yilning aprel holatiga ko'ra tumanda qurilish sohasida faoliyat olib borayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 62 taga yetgan.

Qurilish sohasidagi bunday jadal rivojlanish xavfsizlik choralari kuchaytirishni ham taqozo etadi. Shu bois Hazorasp tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi tomonidan qurilish obyektlarida muntazam ravishda o'rganish va profilaktika ishlari olib borilmoqda. Jumladan, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi, favqulodda holatlarning oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari tashkil etilib, qurilish tashkilotlari xodimlari ogohlantirilmoqda.

Mazkur sa'y-harakatlar tumanda qurilish ishlari xavfsizligini ta'minlash, inson hayoti va salomatligini asrashga xizmat qiladi.

Abdulla ISMOILOV,
Hazorasp tumani FV bo'limi katta inspektori, katta leytenant.

Yangi Namangan tumani hududidagi 38 ta ko'p qavatli hamda 4370 ta yakka tartibdagi uylarda o'rganish ishlari olib borildi.

O'rganish davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha fuqarolarga tushunchalar berildi. Shuningdek, tuman hududidagi 14 ta avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalarida, 20 ta davlat tasarrufidagi obyektlarda o'rganish ishlari olib borilib, o'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha maskan rahbarlariga ko'rsatmalar berilib, ishchi-xodimlarga sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlar va ularning salbiy oqibatlari to'g'risida tushuntirishlar berildi.

Narzullo USMONOV,
Yangi Namangan tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, katta leytenant.

MASHQ VA MASHG'ULOTLAR

Ma'lumki, kuchli yer silkinishi turli toifadagi obyektlarga, shu qatori suv omborlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu bois, navbatdagi mashq "Hisorak" suv omborida yuzaga kelgan shartli avariya oqibatlarini bartaraf etish maqsadida tashkil etildi.



Unda jamoaning favqulodda vaziyatlarga qay darajada tayyor ekanligi, bunday vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish borasidagi bilim-ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi.

Shartli zilziladan so'ng obyektlar hududida sodir bo'lgan avariya va yong'in oqibatlarini

bartaraf etishga kirishildi. Jalb qilinadigan kuch vositalarini to'g'ri yo'naltirish, jabrlanganlarni xavfsiz hududga olib chiqish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari amaliy tarzda ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, mashq doirasi-da mutaxassislar tomonidan

kichik hajmli kemalardan foydalanishda qaysi jihatlarga e'tibor qaratish lozimligi yuzasidan muhim ma'lumotlar berildi.

Kunlarni isishi bilan turizm maskanlari sayohatchilar bilan gavjumlashib, kemalardan foydalanuvchilar soni ham ortadi. Albatta, kemalardan foydalanishning ham o'ziga yarasha tartib-tamoyillari mavjud.

Shu bois, qutqaruv xizmati g'avvoslari tomonidan shartli suvda cho'kayotgan fuqarolarni qutqarish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari ko'rgazmali tarzda bajarib ko'rsatildi.

Albatta, bunday mashqlar kutilmagan vaziyatlarda ham aholida, ham ixtisoslashgan xizmat xodimlarida kerakli ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Azamat JUMAQULOV,
Qashqadaryo viloyati FVB
kichik hajmli kemalar inspeksi-
yasi boshlig'i.



Nishon tumanidagi "Qarshi-Kerki" chegara bojxona maskanida "lonlashtiruvchi nurlanishning egasiz manbalarini topilishi bilan bog'liq avariyalarni bartaraf etishda FVDtning tegishli xizmatlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida ikki qismdan iborat maxsus-taktik o'quv mashqi bo'lib o'tdi.

Nazariy qismda ionlashtiruvchi nurlanishning egasiz manbalarini topilishi bilan bog'liq avariyalarni bartaraf etishga qaratilgan barcha zarur chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish borasida so'z bordi.

Amaliy qismda mutaxassislar dastlab ikkilamchi qorametall ortilgan yuk avtomobilini dozimetrik nazoratdan o'tkazish vaqtida aniqlangan shartli radiatsion manbani xavfsiz joyga o'tkazish va bu haq-

da tegishli xizmatlarga xabar qilish, uning zarar yetkazish masofasini aniqlash tartiblarini ko'rsatib o'tdi va viloyat FV boshqarmasi radiatsion-kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza guruhi qutqaruvchilari aniqlangan manbani zararsizlantirish harakatlarini amaliy tarzda bajarishdi.

Ushbu mashq viloyat FVDtga kiruvchi tegishli xizmatlarining radiatsiyaviy avariylarni tahlil qilish, barvaqt aniqlash va harakat qilish borasida hamkor tashkilotlarni va jalb etiladigan maxsus texnika va qurilmalarni texnik shayligini ko'zdan kechirish hamda soha vakillarini bilim va ko'nikmalarini oshirish yo'lida muhim omil bo'ldi.

Aziz ASADULLAEV,
Qashqadaryo viloyati FVB
bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

Sirdaryo viloyati FVB hamda Yangiyer shahar FV bo'limi tomonidan yangi qurilayotgan obyektlarda yong'in xavfsizligi bo'yicha reja asosida nazorat tadbirlari o'tkazilmoqda. Bu tadbirlar qurilish maydonlarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilinayotganini tekshirish va kamchiliklarni barvaqt aniqlashga qaratilgan.

Tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan olib borilayotgan profilaktika va tekshiruv ishlari davomida quyidagi jihatlarda alohida nazorat ostiga olinmoqda:

- qurilish obyektlarida birlamchi yong'in o'chirish vositalarining (o't o'chirgichlar, suv quvurlari, yong'in kranlari) mavjudligi va ulardan foydalanishga tayyorligi;
- elektr simlari, vaqtinchalik elektr tarmoqlari va uskunalarining xavfsizlik me'yorlariga mosligi;
- qurilishda foydalanilayotgan materiallarning yong'inga chidamlilik darajasi;
- qurilish maydonida ishlovchi ishchilar uchun yo'riqnomalar va muntazam o'quv mashg'ulotlarining tashkil etilishi;

– yong'in yuz berganda evakuatsiya yo'llarining mavjudligi va ular orqali tezda chiqib ketish imkoniyatining ta'minlanganligi;

– qurilish hududidagi ochiq olov manbalarining nazorat ostida bo'lishi.

Shuningdek, har bir obyektida yong'in xavfi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli zonalar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berilmoqda. Tadbirlar davomida ayrim qurilish obyektlarida yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinmayotgani, masalan, o't o'chirgichlarning yetarli emasligi, evakuatsiya yo'llarining noto'g'ri ulab qo'yilganligi kabi holatlar aniqlanmoqda.

Bunday holatlar yuzasidan qurilish tashkilotlariga rasmiy ogohlantirishlar, ayrim holatlarda esa ma'muriy choralar ko'rilib, qisqa muddatlarda kamchiliklarni bartaraf etish uchun aniq muddatli topshiriqlar berilmoqda.

Ulug'bek HUSANOV,
Yangiyer shahar FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari,
katta leytenant

Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida viloyat IIB YHXB mutaxassislarini jalb qilgan holda markazning doimiy va o'zgaruvchan tarkibi ishtirokida o'quv seminari o'tkazildi.

Seminar nazariy va amaliy qismdan iborat bo'lib, nazariy qismida mutaxassislar tomonidan avtotransport vositalaridan xavfsiz foydalanish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l harakati qoidalariga kiritilayotgan o'zgarishlar va qo'shimchalar hamda qoidalarining buzilishi bilan bog'liq holatlarda belgilangan javobgarlik masalalari yuzasidan tadbir ishtirokchilariga slayd materiallari orqali batafsil tushunchalar berildi.

Amaliy qismda esa markazdagi mavjud avtotransport vositalari hamda markazning doimiy shaxsiy tarkibiga tegishli bo'lgan shaxsiy avtotransport vositalarining texnik holati va ularning tegishli hujjatlarini mavjudligi saf ko'rigini o'tkazish orqali o'rganib chiqildi va yakunda mutaxassislar tomonidan haydovchilarga yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash borasida tegishli tavsiyalar berildi.

M. NORQULOV,
Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi boshlig'i
o'rinbosari, podpolkovnik.

Uchqo'rg'on tumani "Uchqo'rg'on-Kensay" chegara-bojxona postida "Kontrabanda yo'li bilan olib kiritilgan ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini aniqlanganda FVDt xizmatlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida 5 bosqichdan iborat ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi bo'lib o'tdi.

Mashq davomida tegishli xizmatlar tomonidan jarayonlarni o'rganish, vujudga kelgan favqulodda vaziyatlar oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etish bo'yicha fuqaro muhofazasi boshliqlari va tuzilmalari berilgan tezkor yig'in xabariga ko'ra belgilangan vaqtda qarorgohga yig'ilib, vazifalarni olgach, favqulodda vaziyatlar so-



dir bo'lgan hududlarda nazorat o'rnatildi hamda oqibatlarini bartaraf etildi.

Shuningdek, savol-javoblar, suhbatlar o'tkazilib, mashq yakunida yo'l qo'yilgan kamchiliklar va xatolar yuzasidan kerakli tavsiyalar berildi.

Biloljon QAMBARALIYEV,
Namangan viloyati FVB
axborot xizmati yetakchi
mutaxassisi.
Abrorxon HAMRAYEV,
Uchqo'rg'on tumani FV
bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

Qashqadaryo viloyati IIB YHXB mas'ullari ishtirokida yo'l harakati qoidalarini talablariga rioya qilinishini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan seminar bo'lib o'tdi.

Seminarida boshqarma va uning joylardagi barcha bo'lim (bo'linma) shaxsiy tarkibi markazlashgan videokonferensaloqa orqali onlayn tarzda ishtirok etdi.

Jarayonda mutaxassislar tomonidan amaldagi yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini va unda belgilangan talablar, kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalar to'g'risida ma'lumotlar berib o'tildi.

Yakunda yo'l-transport hodisalarini aks etgan ta'sirli videorolik namoyish qilindi.

T. TURAYEV,
Qashqadaryo viloyati FVB
SHXB boshlig'i, podpolkovnik.



YUKSAK SAVIYADAGI TADBIRLAR

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida vazirlik tizimidagi yong'in-qutqaruv qismlariga yangi qabul qilingan yosh qutqaruvchilar tarkibi bilan markazdagi "Mutaxassislik fanlari" sikl o'qituvchilari tomonidan viktorina o'tkazildi.

Bilimlar bahsida tinglovchilardan shakllangan oltita jamoa 5 ta shart bo'yicha o'zaro bellashdi. Qiziqarli va muvofiqsiz o'tgan mazkur bahsni sikl professor-o'qituvchilaridan iborat hakamlar hay'ati baholab bordi. Yakunda 4-guruh vakillari viktorina g'olibligini qo'lga kiritdilar. Ikkinchi o'rinni 2-guruh vakillari egallashdi. Uchinchi o'rin esa 5-guruh vakillariga nasib etdi.

Zukkolar bahsida sovrindor o'rin egallagan guruhlariga esdalik sovg'alari topshirildi.

J. XOLMURODOV

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi sikl katta o'qituvchisi, mayor.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi boshlig'ining tashabbusi bilan akademiyaning bir guruh harbiy xizmatchi va kursantlari O'zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyiga tashrif buyurdilar.

Mazkur sayohat hamkasblarimizga prokuratura tizimining shonli tarixi, ham sobiq mustabid tuzumning qatag'on siyosati davridagi qonli o'tmishi bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Muzeyning "Yangi O'zbekiston prokuraturasi faoliyati" nomli bo'limidan so'nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan prokuratura sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar haqida ma'lumot beruvchi ekspozitlar joy olgan.

Muzeyning qatag'on qurboni bo'lgan prokuratura fidoyilariga bag'ishlangan ekspozitlari akademiyaning harbiy xizmatchi va kursantlarida katta taassurot qoldirdi. Muhammadjon Mo'minov,

Diloro Yusupova, Mirzo Qo'qonboy Abduxolliqov, Sa'dulla Po'latxo'jayev, Habibulla Salomov kabi jasur va haqiqatparvar prokurorlarining og'ir qismati, har qanday qaltis vaziyatda ham vijdonlariga xiyonat qilmasdan, yuksak jasorat ko'rsatganliklari har birimiz uchun ibrat maktabidir.

Muzeyning ushbu bo'limidan qatag'on uchragan prokuratura xodimlarining hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi 20 ga yaqin stend, 30 dan ortiq maxsus mul'iyat hamda zamonaviy texnologiyalar asosida aks ettirilgan ovozi-ko'rgazmali tasvirlar o'rin olgan.

Kursantlar mustabid tuzum davrida turli soxta ayblovlari, tuhmat va ig'volar bilan qatag'on qilingan 100 dan ortiq

Ko'kdala tumani FV bo'limida umumta'lim maktabi o'quvchi-yoshlari uchun "Ochiq eshiklar" kuni tadbiri o'tkazildi.

Unda soha mas'ullari tomonidan dunyoda sodir bo'layotgan tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar yuzasidan ma'lumotlar berildi. Qiziqarli faktlar, real sodir bo'lgan voqealar, qutqaruv jarayonlari haqida yoshlarga qiziqarli ma'lumotlar berildi. Tadbir jarayonida yong'in-qutqaruv texnikalari va zarur jihozlarning ko'rgazmali namoyishi o'tkazilib, ularning taktik-texnik xususiyatlari tanishtirildi.

Jarayonda yoshlarda yong'inga bo'lgan ongli munosabatni shakllan-

tirish maqsadida shartli yong'in hosil qilinib, uni bartaraf etish tartiblari amaliy harakatlar yordamida ko'rsatib o'tildi. Qolaversa, yoshlarimizni harbiy kasbga qiziktirish maqsadida FVV Akademiyasi va "Shahrisabz Temurbeklar" harbiy-akademik litseyidagi ta'lim olish tartibi, sharoitlari hamda nomzodlarni saralash bosqichlari to'g'risida batafsil ma'lumot berildi.

Arzimurod LAPASOV,

Ko'kdala tumani

FV bo'limi katta inspektori, kapitan.



prokuratura xodimlarining taqdiri haqida tarixiy hujjatlar va dalillar orqali ma'lumotga ega bo'ldilar. Muzeyning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, uning tarkibida axborot-kutubxona markazi tashkil

etilganligidir. Bu tashrif xizmatchi va kursantlarda katta taassurot qoldirdi.

Farhodjon XOJAYEV,

FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi, mayor.

Xorazm viloyatining turli hududlarida faoliyat yuritayotgan litsey, umumta'lim maktablari va politexnikumlarida tashkil etilgan "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klublari o'rtasida musobaqasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.



Musobaqa 5 ta shart asosida tashkil etilib, unda jamoalar o'zlarining jismoniy tayyorgarligi, favqulodda vaziyatlar yo'nalishidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini sinovdan o'tkazishdi. Har bir ishtirokchi jamoa tengsiz kurash olib borib, o'z mahoratlarini namoyon etishga harakat qildi.

Musobaqa yakunlariga ko'ra, umumta'lim maktablari o'rtasida 1-o'rin Urganch tumanidagi 36-sonli umumta'lim maktabining "Yengilmaslar" jamoasiga, 2-o'rin Urganch shahar 5-sonli umumta'lim maktabining "Jasorat" jamoasiga, 3-o'rin esa Gurlan tumani 29-sonli umumta'lim maktabining "Qalqon" jamoasiga nasib etdi. Politexnikumlar o'rtasida esa 1-o'rinni Xonqa tumani 2-sonli politexnikumining "Xorazm" jamoasi band qildi. Yangibozor tumani 1-sonli politexnikumi-

ning "Jasorat" jamoasi 2-o'rin bilan cheklandi. 3-o'rinni esa Urganch tumani 1-sonli politexnikumining "Yosh qutqaruvchilar" jamoasi egalladi.

Mazkur musobaqada 13 ta umumta'lim maktablaridan 104 nafar o'quvchi hamda 10 ta kasb-hunar maktablaridan 80 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

G'olib jamoalarga va diplom, faxriy yorliq hamda qimmatbaho esdalik sovg'alari tantanali ravishda topshirildi.

Hojiakbar RUSTAMOV,

Xorazm viloyati FVB

axborot xizmati boshlig'i, leytenant,

Erkinboy ERNAZAROV,

Urganch shahar FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, leytenant.



Andijon viloyati FVB tomonidan Andijon shahridagi Sport maktabi markaziy o'yingohida "Yosh qutqaruvchi" musobaqasining viloyat bosqichi o'tkazildi.

Musobaqada ishtirokchilar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'zaro bellashdilar:

- savol-javob – favqulodda vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qilish, qutqaruvga oid nazariy bilimlarni sinovdan o'tkazishi;
- birinchi yordam ko'rsatish – jabrlanganlarga tezkor va samarali tibbiy yordam berish;
- dor yo'li va chodir – favqulodda vaziyatlarda tezkor dor yo'lini tashkil etish, qutqaruv ishlarini bajarish;
- balandlikda ishlash – yuzaga keladigan ofatlarda, ayniqsa, yuqori qavatlardagi vaziyatlarda qutqaruv harakatlari;
- estafeta – masofaga to'siqlar oshib yugurish va yong'in o'chirish orqali bajarildi.

Musobaqaning yakuniy natijalariga ko'ra: 1-o'rin Asaka tumani 23-maktab jamoasiga, 2-o'rin Andijon tumani 3-ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktab jamoasiga, 3-o'rin esa Baliqchi tumani 53-maktab jamoasiga nasib etdi.

Kasbiy ta'lim maktablari orasida esa 1-o'rinni Paxtaobod tumani 2-son politexnikum jamoasi, 2-o'rinni Marhamat tumani 2-son politexnikum jamoasi, 3-o'rinni esa Andijon shahar IIV akademik litsey jamoasi qo'lga kiritdi.

G'olib bo'lgan jamoalar "Yosh qutqaruvchi" musobaqasining respublika bosqichi yo'llanmasiga ega bo'ldilar.

Dilxush POZILOV,

Andijon viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari v.v.b., mayor.

HAFTA DAVOMIDA



Yangihayot tumani, Yo'ldosh 4-dahasida joylashgan xonadonlarning birida yashaydigan fuqaro murojaat qildi. Uning aytishicha yashash uyining kirish eshigi qulflanib qolgan. Ichkarida esa 1 nafar ayol qolib ketgan. Unga zudlik bilan yordam ko'rsatilishi zarur. Mazkur xabarga asosan, tuman FV bo'limi qutqaruvchilari aytilgan manzilga yetib borib, maxsus anjomlar yordamida eshikni ochdi.

Olmazor tumani, Chuqursoy ko'chasida joylashgan obyekt hududida yuk tashish avtomobilida yong'in sodir bo'lgan. Ushbu xabar Toshkent shahar FVBga kelib tushgan zahoti voqea joyiga yong'in-qutqaruv ekipaji 5 daqiqada yetib bordi. 10 daqiqa ichida esa yong'inni butunlay o'chirishga erishildi. Jabrlanganlar yo'q.

Yangi Namangan tumani, "Mingchinor" MFY, "A.Ermatov" ko'chasida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchasida yong'in sodir bo'lgan. Mazkur xabarga asosan 2 ta yong'in ekipaji yo'lga chiqib, 4 daqiqada voqea joyiga yetib borgan. 4 daqiqada yong'in to'liq bartaraf etilgan. Hodisa oqibatida tan-jarohati olganlar yo'q.

Toshkent shahari, Mirzo Ulug'bek tumani, Chingeldi MFY, Milliy bog' ko'chasida yangi qurilayotgan ko'p qavatli uyning hududida yong'in yuzaga keldi. Qilingan chaqiruv asosida yong'in-qutqaruv ekipaji soat 7 daqiqada voqea joyiga yetib borgan. 4 daqiqa ichida esa yong'in to'liq bartaraf etildi. Yong'in oqibatida tan jarohati olgan va halok bo'lganlar yo'q.


"Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasiga mudhish xabar kelib tushdi. Unda aytilishicha, A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining 129-kilometrida "Vodiy-Toshkent" yo'nalishida harakatlanib ketayotgan "VOLVO" va 129,1 kilometrida "DAF" rusumli yuk avtomashinalarining yukxonasida yong'in boshlangan va tutash holati sodir bo'lgan. Mazkur xabarga asosan, 4-mexanizatsiyalashgan nazorat-kuzatuv posti hamda "Beshqo'l" navbatchilik maskanidan FVV qutqaruvchilari hodisa joyiga yetib borgan va qisqa vaqt ichida yong'in bartaraf etildi. Qutqaruvchilarning sa'y-harakatlari natijasida yuklarning asosiy qismi asrab qolingan. Shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatning oldini olishda erishildi. Hodisa oqibatida tan-jarohati olganlar mavjud emas.

Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tumani, "Shodlik" MFYda joylashgan xonadonlarning birida istiqomat qilayotgan fuqaro FVBga murojaat qildi. Uyining ichki eshigi ochilmayapti. Xonadon ichida 2 yoshli go'dak qolib ketgan. Mazkur xabarga asosan, qutqaruvchilar aytilgan manzilga tezkorlik bilan yetib boriib, maxsus narvon yordamida xonadon derazasidan kirishdi, ichkaridan eshikni ochib, bolakayni ota-onasiga sog'-salomat topshirishdi.

"Toshkent-Vodiy" yo'nalishida harakatlangan "Cobalt" rusumli avtomobil haydovchisi boshqaruvni yo'qotgan. Oqibatda yo'lining xandaq qismiga tushib ketgan. Shundan keyin amaliy yordam zarurligi to'g'risida "Qamchiq" maxsus-qidiruv yong'in-qutqaruv boshqarmasiga xabar kelib tushgan.

Xabarga asosan, qutqaruv otryadi aytilgan manzilga zudlik bilan yetib borib, maxsus texnika va asbob-anjomlar yordamida avtomashinani olib chiqishgan. Hodisa oqibatida tanjarohati olgan va halok bo'lganlar yo'q.

FVV qutqaruvchilariga 1 hafta davomida qiyin ahvolga tushib qolgan insonlar tomonidan 71 ta murojaat kelib tushdi. Har bir murojaatdan so'ng, qutqaruvchilarimiz zudlik bilan aytilgan manzillarga yetib borishdi. Maxsus qutqaruv asbob-anjomlar yordamida 130 nafar fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatishdi.



IMKONIYATLAR ANIQLANDI

Qashqadaryo viloyati FVB xodimlari tomonidan "Yosh qutqaruvchi" sport musobaqasi o'tkazildi. Dastlab, 16 ta umumta'lim maktab jamoalari o'zaro bellashgan bo'lsa, so'ng musobaqa rejasiga asosan viloyat hududidagi kollej, kasb-hunar maktablari va akademik litsey o'quvchilaridan iborat 8 ta jamoa g'oliblik uchun bellashishdi.

Jamoalar beshta shart bo'yicha kurashishdi. Birinchi shartda, ishtirokchilar "Fuqaro muhofazasi va hayot xavfsizligi asoslari" bo'yicha savol-javob shartida bilimlarini sinashgan bo'lsa, ikkinchi shartda yoshlarimiz jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish borasida o'z mahoratlarini ko'rsatishdi.

Tezkorlikni talab etadigan uchinchi shart daryodan arqon orqali o'tish va vaqtinchalik ko'chma xona qurilmasini tiklash bo'ldi. Yoshlarimiz qanday imkoniyatlarga ega ekanliklarini amalda ko'rsatib berishdi. To'rtinchi shartda esa yosh qutqaruvchilar qisqa vaqt ichida o'quv minorasining birinchi qavatiga ko'tarilish shartini bajarishdi. So'nggi shartda ishtirok etgan o'quvchi-yoshlar esa soddalashtirilgan yong'in o'chirish estafetasi turlari bo'yicha yana bir bor tezkorliklarini sinovdan o'tkazishdi.

Musobaqaning maktablar o'rtasida bo'lib o'tgan bahslarida umumjamoa hisobida 1-o'rin G'uzor tumanidagi 34-maktabga nasib etdi, 2-o'rinni Yakkabog' tumanidagi 32-maktab jamoasi qo'lga kiritgan bo'lsa,

3-o'ringa Nishon tumanidagi 46-maktab jamoasi ega chiqdi.

Shuningdek, Kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasidagi bellashuvda 1-o'ringa Qamashi tumani 1-sonli politexnikum jamoasi munosib ko'rilgan bo'lsa, 2-o'rinni Qarshi davlat universiteti qoshidagi Akademik litseyi jamoasi egalladi. Musobaqadagi tirishqoqligi va tezkorligi bilan boshqa jamoalardan ajralib, yuqori natijalarni ko'rsata olgan "Muborak" tibbiyot texnikumi yosh qutqaruvchilariga 3-o'rin nasib etdi.

F. QODIROV,
Qashqadaryo viloyati FVB bosh inspektori,
kapitan.

VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI

Bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb vazifalardandir. Bu borada harbiy prokuratura organlari tomonidan kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda maktablarda va mahallalarda o'quvchi-yoshlar ishtirokida vatanparvarlik tadbiri va prokurorlik soatlari o'tkazib kelinmoqda.

Jumladan, joriy yilning o'tgan davrida 600 dan ziyod chegaraoldi mahalla va olis hududlardagi umumta'lim maktablarida 700 ga yaqin shu kabi tadbirlar amalga oshirilib, ularda 30 mingdan ortiq o'quvchi-yoshlar qamrab olindi.

Muloqot va o'zaro suhbatlarda yosh avlod tafakkuridagi vatanparvarlik tushunchasi va hissi naqadar teran va jo'shqin ekanini anglash qiyin emas.

Ularning mulohazalarini uyg'unlashtirgan holda aytadigan bo'lsak, vatanparvarlik, bu faqat Vatanni sevishigina emas, balki unga sadoqat, u uchun xizmat qilish va bu yo'lda, qaysi sohada, kim bo'lmasin butun umrini, borini va salohiyatini baxshida etish, kerak bo'lsa, jonini fido qilishga shay bo'lish demakdir.

Vatanparvarlik zamirida, yurt taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi xalqlarning o'zlari yashayotgan hudud daxlsizligi, ozodligi, erkinligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi his-tuyg'ular bilan mujassam. Bu Vatan o'tmishi va buguni bilan faxrlanishda, uning istiqboli uchun daxldorlikda, manfaatlarini har qanday vaziyatda himoya qilishdagi amaliy va faol harakatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi...

Vatanparvarlik tadbirlari yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barobarida ularda ertangi kunga bo'lgan ishonchni yanada ortayotgani bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

G'iyosiddin RAHMONOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi, adliya podpolkovnigi.

Jizzax harbiy prokuraturasi va harbiy qism qo'mondonligi hamkorligida yoshlarni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish maqsadida "Harbiy qismda bir kunim" loyihasi ostida "Ochiq eshiklar" tadbiri o'tkazildi.

"OCHIQ ESHIKLAR" KUNI

Viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamkorligida Jizzax shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazida ommaviy sayyor qabul va mehnat yarmarkasi o'tkazildi.

Unda harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a'zolari hamda yoshlar ishtirok etdi.

Jarayonda 14 ta murojaatdan 4 tasi joyida ijobiy hal etildi, 8 tasi yuzasidan huquqiy tushuntirish berildi, 2 tasi nazoratga olindi.

Mehnat yarmarkasida harbiylarning oila a'zolariga, yoshlar, jumladan, muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan yigitlarga korxona va tashkilotlarning vakant lavozimlari taklif etildi.

Shuhrat XODJIYEV,
Jizzax harbiy prokurorining katta yordamchisi, adliya mayori.

SAYYOR QABULLAR

Bevosita muloqot – mavjud muammolarni o'rganish va tezkor hal etish borasida muhim omillardan hisoblanadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda joylarda ommaviy sayyor qabullar o'tkazib kelinmoqda.

Ularning galdagisi Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida tashkil etildi.

Unda harbiy prokuratura, Favqulodda vaziyatlar va Mudofaa vazirliklari, Milliy gvardiya va IIV Qorovul qo'shinlari qo'mondonliklari, tuman hokimligi va prokuraturasi vakillari tomonidan harbiy xizmatchilar, xodimlar, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar tinglandi.

Jarayonda 40 ta murojaatdan 6 tasi qanoatlantirilib, 17 tasi yuzasidan tushuntirish berildi. Muddat talab etadigan 17 ta murojaat esa nazoratga olindi.

Mehridin NAZAROV,
Buxoro harbiy prokurorining o'rinbosari, adliya podpolkovnigi.

AMALIY ISHLAR

Samarqand harbiy prokuraturasi va Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi hamkorligida Bularung'ur tumanida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Dastlab ochiq muloqot tashkil etilib, harbiylar va ularning oila a'zolariga yaratilgan sharoitlar, imkoniyat va imtiyozlar haqida hamda bugungi sayyor qabulning maqsadi va ahamiyati xususida so'z yuritildi.

So'ngra tumandagi korxona va tashkilotlardan jalb etilgan tegishli soha mutaxassislari ishtirokida Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari va xodimlari hamda ularning oila a'zolari tinglandi. 20 ta murojaatdan 5 tasi joyida ijobiy hal etildi, 12 tasiga huquqiy tushuntirish berildi va muddat talab etadigan 3 ta murojaatning ijrosi nazoratga olindi.

Shuningdek, harbiy qism qo'mondonligi bilan hamkorlikda Nurobod tumanining olis hududidagi 64-sonli umumta'lim maktabida vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Harbiy orkestr jamoasi va faxriy qorovulning ko'rgazmali chiqishlari yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Yakunda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida maktab kutubxonasiga mingga yaqin o'zbek va jahon adabiyotiga oid kitoblar taqdim etildi.

Azamat GULAMOV,
Samarqand harbiy prokurorining katta yordamchisi, adliya kapitani.

SADOQAT ONTI

Sir emaski, inson hayotida unutilmas va taassurotlarga boy lahzalar ko'p bo'ladi. Alp qomatli yigitning Vatanga, xalqiga va Prezidentiga qilgan qasamyodi esa uning xotirasida bir umrga muhrlanadi.

Zero, Vatanga qasamyod bu shunchaki oddiy so'zlardan iborat bo'lmay, balki qalbning tub-tubidan nido misol otilib, vujudni hayajonga chulg'ovchi, sha'n, or-nomus, shu bilan birga, mas'uliyatli burchni sadoqat va sharaf bilan ado etish o'tidir.

Milliy gvardiyaning harbiy qismlaridan birida bo'lib o'tgan tizim saflarida muddatli harbiy xizmatni o'tashga kirishgan yosh askarlarning "Vatanga qasamyod" qabul qilish marosimi ham shu kabi his-hayajon va taassurotlarga boy bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, Milliy gvardiya qo'mondonligi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi va harbiy

sudi, keng jamoatlik vakillari hamda ota-onalar, faxriylar va nuroniylar ko'z o'ngida yuragida yurtiga muhabbati jo'sh urib turgan mardlar Vatanga sadoqat uchun ahd qildilar.

*Vatanga qasamyod mardlar so'zidir,
Lafziga sodiqlar chin botir, tanti.
Ahdin ado etmoq erlar yuzidir,
Vatanga qasamyod — sadoqat onti!*

Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi, adliya podpolkovnigi.

TARAQQIYOT KUSHANDASI

Siyosiy jihatdan olganda, korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatishning bir ko'rinishidir. Uning domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadida o'z manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi.

Hokimiyat organlari vakillarining jinoyatga aralashib qolishi rivojlanayotgan jamiyat uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biridir. Jinoyi tuzilmalarni davlat organlarining ayrim amaldorlari bilan birlashib ketishi, jamoatchilik nazarida davlatni obro'sizlantiradi. Mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham unga ishonchsizlik ortishiga sabab bo'ladi. Bunday nopok yo'lga kirganlar jazodan qutulib ketolmaydi, albatta. Jinoyatga jazo muqarrar. Ammo shu o'rinda bunday jirkanch jinoyatlar sabablarini aniqlashga ko'proq e'tibor qaratmoq zarur, deb o'ylaymiz.

Mamlakat aholisi, ayniqsa yoshlarning huquqiy bilimni oshirish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishni yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlarini ko'rmoq nihoyatda zarur, deb o'ylayman. Bu borada jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanmoq kerak bo'ladi. Har bir katta-kichik rahbar yoki mas'ul xodim korrupsiya domiga tushib, jinoyatga qo'l uradigan bo'lsa, na-faqat o'zini obro'sizlantirishi, ayni chog'da oila a'zolari, farzand-

larining ham yuzini yerga qaratishini chuqur anglashi muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda kasbim nuqtai nazaridan "Sudyalarning odob-axloq kodeksi" xususida ham qisqacha to'xtalib o'tsam. Sudyaning kodeks qoidalariga so'zsiz rioya qilishi, o'z xizmat vazifalarini halol v vijdonan bajarishi uning sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hamda sudning nufuzini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Sudya odil sudlovni amalga oshirishda inson huquq va erkinliklarining sud tomonidan himoya qilinishi sud hokimiyati organlari faoliyatining mazmun-mohiyati ekanligini unutmasligi lozim. Sudya har qanday vaziyatda o'z sha'ni va qadr-qimmatini saqlashi, odob-axloq normalariga rioya etishi, kamtar, xushmuomala bo'lishi shart. Sudyaning faoliyatiga xalqning o'zi baho berishini u doimo yodda tutishi lozim.

Ja'far KURBANOV,
Jinoyat ishlari bo'yicha Chilonzor tuman sudining tergov sudyasi.





Katta shahardagi chog'roqqina hovli. Uylar zamonaviy ta'mirlangan bo'lsa-da, katta ustalarning qo'li tekkan otameros xonadon ekanligi ko'rinib turadi. To'rt ayolu bir qizaloqni bag'riga olgan bu go'sha necha yillardan buyon erkak nafasini tuymagan. Xonadon boshlig'i Shokarim aka Ikkinchi jahon urushining ilk kunlarida frontga o'tlanibdiki shunday. Sevimli ayoli va ikki norasidasini Allohga omonat qilgan erkakning katta surati uy ichiga qadam qo'yganingiz zahoti sizni qarshi oladi.

Ayol, Sabr VA UMID

saksonga yaqinlashayotgan Davlatxon va Nusratxon buvilarning duodan qo'llari tushmasdi.

Lekin... Lekin oylar yillarga ulandi hamki Hurriyatda onalik belgilari yuzaga chiqmadi. Shifokorlar tomonidan befarzandlik sababi unda aniqlandi. Har ikki oila uni davolash uchun bor imkoniyatlarini ishga solishdi. Tanish shifokorlar, tabiblar, momolar... Inson umidi so'nishiga yo'l qo'ymaydi. Chora deb bilgan, najot bo'lib ko'ringan har qanday yo'lga bosh suqadi. Hurriyat davolanishlardan charchadi. Tushkunlik girdobiga cho'ka boshladi. Jigarbandlarining ahvoli undan-da mahzun. Xonadonlariga daf'atandan kirib kelgan quda ayol esa...

– Hurriyatxon bizga juda yaxshi kelin bo'ldi, qizlarim qatorida qiz bo'ldi, – gapni uzoqdan boshladi qaynonasi Mavluda opa. – Quda bo'lganimizga ham besh yildan oshdi. Oramizdan biror marotaba dilxiralik o'tmadi. Ikki yosh ham bir-birlarini ranjitmay ahil-inoq yashashdi. Ammo o'rtada farzand bo'lmaganidan keyin... O'zlaring tushunasizlar, bunday rishta mo'rt bo'ladi. Yoshlar hozir buni anglamasligi mumkin. Lekin anglab yetganda kech bo'ladi, deb qo'rqaman. Shuning uchun oldilaringga bosh egib keldim. O'g'limning farzandsiz o'tishini istamayman.

– Niyatingizni o'g'lingizga aytdingizmi, qizim? – ovozi qaltiragan ko'yi Mavluda opadan so'radi Nusratxon aya.

– Yo'q. Bu yerga kelganimni ham Doniyorjon bilmaydi. Hurriyatxon aqlli, sizlar gapirsalaring, tushunadi. Yoshlar boshqa-boshqa oila qursa, balki ikkisi ham bolali bo'lib ketishar...

Hurriyatning sevimli yori, kelin bo'lgan xonadonini tark etganiga bugun bir oy bo'ldi. Uni tushkunlikdan jonfido mehribonlari, sevimli kasbi asrab turardi. Ammo atrofidagi to'rt ayol to'rt tomonda azobda, ruhiy iztirobda ekanini his qilib turish barchasidan og'ir edi. Ostonasiga bir necha bor bosh urib kelgan umr yo'ldoshi Doniyorjon yolg'iz qaytdi. Qaynonasining maqsadidan xabar topgan Hurriyat eri bilan ajrashishga qat'iy qaror qilgandi.

– Bolam, keyin afsus qilmaysanmi? – kundan-kun jimgina so'lib borayotgan qiziga termildi Nazifa opa. – Doniyorjon ham qatnayverib, qiynalib ketdi. Birga yashasalar balki...

– Yo'q, oyijon, baribir farzandli bo'lmaymiz. Ozgina umid bo'lganda qaynonam ajratmagan bo'lardi. Siz mendan xavotir olmang. Faqat ikkala buvimning ahvolini ko'rib...

Nazifa opa ko'ziga yosh to'lib turgan qizini bag'riga bosdi. Ona-bolalar unsiz yig'lardi...

Oradan uch oy o'tdi. Xonadon ahli uchun og'ir kechgan uch oy. Chehrasi so'lg'in, ishtahasiz Hurriyatning kutilmaganda qornida kuchli og'riq turdi. Zudlik ila shifoxonaga yetkazishdi, turli tekshiruvlar amalga oshirildi.

– Vahima qilmanglar, hammasi joyida, – Hurriyatning oldidan bir qadam jilmay turgan onasi va xolasiga vaziyatni bamaylixtir tushuntira boshladi UZI shifokori. – Homila katta bo'lgani sari ba'zida shunday holatlar bo'lib turadi. O'g'ilchasi o'n yetti haftalik, bu to'rt oylik degani...

Katta shahardagi chog'roqqina hovli shu kuni ilohiy nurga chulg'andi, go'yo.

Zulfiya YUNUSOVA,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Suratdagi yagona erkak hamon qizlari va nabiralarga ko'rinmas tayanchdek, go'yo. Harqalay, ayollar shunday deb bilishadi. To'rt ayolning, to'g'rirog'i, katta bir avlodning umidi bo'lgan Hurriyat bugun besh yoshga to'ldi.

– Buvijon, nega mening ismim Hurriyat? – Nusratxon ayaga borib suykaldi qo'g'irchoqdek kiyinib olgan qizaloq.

– Katta buving otingni shunday bo'lishini istagan, – uni mehr bilan bag'riga bosdi ayol. – Chunki u buving olimi, ilmi. Sening ismingni shunday qo'yganimizdan keyin yurtimizga hurriyat keldi, mustaqil bo'ldik.

– Bilaman, katta buvim meni xosiyatli qizim, deb erkalatishadi, – maqtangannamo lablarini cho'chchaytirdi qizaloq va so'rashda davom etdi: – Buvijon, nega endi Davlatxon buvimni katta buvi deyman, axir ular sizdan yosh-ku?

– O'zimning savollarga boy nabiraginam, qaqajonim, – kulib nabirasining qo'ng'iroq sochlarini siladi Nusratxon aya. – Katta buving mening opam, faqat yosh ko'rinadi.

– Nima uchun yosh ko'rinadi?

– Chunki u universitetda talabalarga dars bergan, og'ir jismoniy ish qilmagan. Men esa zavodda ishlaganman. Onang bilan xolangni boqish uchun ko'p mehnat qilganman.

– Nega katta buvimning bolalari yo'q? Siz onam bilan Karima xolamga onasiz. U-chi, u kimga ona?

– Umi... Olima bo'lgan, deb bolali bo'lmagan, – xo'rsindi ayol. – Ammo hammamiz uchun ona hisoblanadi. Sen uchun esa katta buvi.

– Unda, Karima xollam-chi, olimi bo'lmasa ham bolalari yo'q-ku? Bo'lganda birga o'ynardim.

– Qizim, tug'ilgan kuningga qanday sovg'alar olganimizni ko'rdingmi? – gapni boshqa tomonga burdi Nusratxon aya.

Hurriyat savollardan bo'shab, sovg'alari bilan maqtangani oshiqdi. Buvisi siniq jilmaygan ko'yi, "Sen bizning yolg'iz umidimiz, chirog'imizsan, bolaginam", – dedi asta pichirlab.

Jiyanining savollarini eshitib turgan Karima ichkari uydin chiqib, onasining yoniga o'tirdi. Xomush tortgan yuziga termilgan ko'yi qo'llarini siladi.

– Onajon, yosh bolaning oddiy savollariga ham to'kilib bo'lasiz-a? Chehrangizni ochsangiz-chi. Bugun nabirangizning tavallud kuni. Vaqtning o'tishini qarang, ko'z ochib yumguncha besh yoshga to'ldi. Yana ozgina kutsangiz...

– Ozgina kutsam, nima o'zgaradi, qizim? Sen baribir oila qurmaysan, bilganingdan qolmaysan. Agar

istaganingda, hozir sening ham o'z oilang, bolalaring bo'lardi.

– Onajon, necha yildirki shu gapni takrorlab charchamaysiz. Yoshim qirqdan oshdi, oila qurmasligimni bilasiz. O'g'lim yashab qolganda hozir yigirma yoshga to'lardi. Erim Afg'onidan tirik qaytganida yana bolalarimiz bo'lardi. Ammo bunday yorug' kunlar peshonamga bitmagan ekan. Endi shularning xotirasi bilan yashayman.

– Ha-a, oilamiz ayollarining peshonasida sinovlar ko'p ekan, juda ko'p, – ko'ziga yosh to'ldi Nusratxon ayaning. – Onam dadamdan qora xat kelgach, uzoq yashamadi. Opam "dadam o'qimishli bo'lishimizni vasiyat qilgan", – deb ilm yo'lini tanladi, oila qurmadi. Mening oilam esa notinch bo'ldi. Dadang bor-budimizni qimorga yutqazdi-yu, ko'chada qolganimizga qaramay, o'zga ayol ortidan ketdi. Ota uyim o'z bag'riga oldi. Opam tayanch bo'lmaganda bilmadim, ahvolimiz ne kechardi. Sizlarni zo'rg'a voyaga yetkazib uzatganimda, singling..., singling Nazifa o'n yil deganda Hurriyatni tug'di-yu, qayta farzand ko'rishdan mahrum bo'ldi. Eri o'sha zahoti boshqa oila qurdi. Sening ahvoling bu, erimga sadoqatli bo'lgan, deb yolg'iz o'tayapsan. Avlodning birgina davomchisi shu nevaraginam. Uning bolalarini ko'rsam, armonim qolmasdi. Ilohim, avlodimiz ildizi qurimasin. Ota uyimga egalik qiladigan evaralar bersin, Allohim.

– Niyatingizga yeting, oyijon, – onasining ko'z yoshlarini artib, yuzini yuziga bosdi Karima. – Shunday xursandchilik kunda ko'z yoshi qilib o'tirganingizni qarang. Yaxshi niyatga erishish uchun yaxshi kayfiyat ham kerak. Qani, turing, onajon, xolajo-on, Nazifa-a, qani, hamma dasturxonga. Tug'ilgan kun bayramini boshlaymiz...

Hurriyat voyaga yetgunga qadar to'rt ayolning ilhaq nigohi, adoqsiz mehri va ardog'i va albatta, duolari bilan ulg'aydi. Nusratxon ayaning ko'ngliga qarasa, nevarasini o'n sakkiz yoshda turmushga uzatgisi bor edi. Ammo qizgina muallima bo'lish istagida oliygohga kirdi. Institutning oxirgi kursida va nihoyat, buvisining orzusi amalga oshdi. U o'zi sevgan yigitga turmushga chiqdi.

To'rt ayolning mehr kaftida, yurak taftida katta bo'lgan Hurriyat bugun o'zga xonadon vakili. Hovli darvozasi tiq desa, barchaning nigohi o'sha tomonga qadaladi. Ziyoli xonadonda unga yaxshi munosabatda bo'lishlaridan barchaning ko'ngli to'q. Biroq sog'inch, yangi xushxabar ilinji to'rt ayolning yuragiga toshdek osilgan umid va iztirob edi. Ayniqsa,



ZAMBURUG'LAR YUQUMLIMI?..

Ba'zan yozning jazirama issiq kunlarida ham ochiq poyabzal kiyishni o'ziga ep ko'rmaydigan kishilar uchraydi. Ularni oyoqning zamburug'li kasalligi bezovta qilgani uchun tirnoqlari xunuk ko'rinishga ega bo'ladi. Buning ustiga tez-tez yuvilishiga qaramasdan oyoqdan kelayotgan noxush hid ham bu insonlarni yopiq oyoq kiyim kiyishga majbur etadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, sayyoramizda har besh kishining biri shu kasallikka chalingan ekan. Har qanday inson umrida bir marta bo'lsin zamburug' kasalligini beixtiyor yuqtirib olishi mumkin. Oyoq yoki qo'lning tirnoqlarini zararlovchi zamburug' sporalari shaxsiy gigiyenaga amal qilmay birovning oyoq kiyimini almashtirib kiyganda, sochiqlardan umumiy foydalanganda, plyajda nam qum orqali, shuningdek, hammomda sintetik yoki tabiiy tolali gilamchalardan, basseynlardan jamoat transportining ushlagichlari orqali yuqadi. Ammo zamburug' har doim ham yuqavermaydi. Bu kasallik, ayniqsa, immuniteti past bemorlar, endokrin xastaligi mavjud odamlar, yurak yetishmovchiligi yoki varikoz kasalligida oyoqlarida qon aylanishi buzilgan xastalarda, kasb taqozosi bilan doimo yopiq yoki noqulay oyoq kiyim kiyishga majbur bo'lgan insonlar (harbiylar, sportsmenlar, shaxtyorlar)da rivojlanish ehtimoli yuqori bo'ladi. Shuningdek, kasallik oyoqlarida yoriqlar, qadoqlar mavjud kishilar va tovon terisi qattiq hamda qalin bo'lgan odamlarda ham rivojlanishi mumkin.

Zamburug' kasalligining ilk belgisi teri shishib, oyoqda va barmoqlar orasida bilchillab turgan yiringli pufakchalar paydo bo'ladi. Agar zamburug' tirnoqlar orasida joylashgan bo'lsa, ular qalin tortib, rangi va shakli o'zgaradi. Tirnoqning tabiiy rivojlanishi buziladi. Ayrim bemorlar kasallik o'zidan o'zi o'tib ketadi deb beparvo bo'lsalar, ba'zilar o'z-o'zini davolash bilan shug'ullanishadi. Ma'lum muddat ushbu dori vositalari ta'sirida xastalikni keltirib chiqaruvchi zamburug' sporalari karaxt holga keladi. Yana

ayrim bemorlar shifokor-mikologga murojaat etmasdan, to'g'ri dorixonaga borishadi. Biroq kasallikning tub sababini aniqlamasdan turib, bilib-bilmay davolanish faqat zarar keltiradi. Lekin bu xastalikdan to'liq forig' bo'lish uchun shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish shart va zarur. Shuningdek, davolash jarayonida tirnoq plastinkasi ikki marta to'liq almashishi kerak. Ya'ni, tirnoq o'sib zararlangan soha yuqoriga ko'tarilsa, qaychi bilan kesib tashlash darkor. Bunga esa bir yil muddat zarur bo'ladi. Davo kursi ham shuncha davom etadi. Agar muddatidan oldin davolashni to'xtatsangiz, zamburug'ning yashab qolishiga sharoit yaratgan bo'lasiz. Bir kurs davolanishdan so'ng kasallikka qarshi davoni to'xtatsangiz, zamburug' sporalari dori vositalariga qarshi o'zida immunitet hosil qiladi va ulardan qutulish qiyin bo'ladi.

Xastalikdan so'ng odam organizmida immunitet hosil bo'lmaydi. Ko'pchilik bemorlar yana o'z uylaridagi buyumlardan kasallikni qayta yuqtirib olishlari mumkin. Organizmni majburan dori vositalari ta'sirida tark etgan zamburug'lar uy egasining shippagida, hammom yoki hojatxonadagi kichkina gilamchalarda yashab qolishi mumkin. Begona odamlarning oyoq kiyimini kiyimang. Basseyn yoki hammomda oyoqyalang yurmang. Tez-tez oyoqyalang tosh, qum, tuproq yoki o't-giyohlar ustida yuring. Oyoqlaringiz dam olib, ularda qon aylanishi yaxshilanadi. Zamburug' yuqtirilgan davrda ishlatilgan sun'iy mochalka va tabiiy luffalar yoki vanna uchun maxsus yasalgan yog'och panjara hamda gilamchalarni yaxshilab dezinfeksiya (zararsizlantirish) qiling yoki tashlab yuboring.

Ajinlar haqida gap ketganda, hech bir ayolni bu mavzu befarq qoldirmasa kerak. Chunki nozik xilqat vakillari tashqi ko'rinishga doimo alohida e'tibor bilan qarashadi. Mabodo yuzda ajinlar paydo bo'la boshlasa, ko'pchilik buni qarishdan darak, deb biladi. Aslida mazkur jarayonni to'liq yoshning ulg'ayishi bilan bog'lash xatodir. Gap shundaki, teridagi o'zgarishlarning o'ziga yarasha sabablari, shuningdek, oldini olish choralari ham bor.



AJIN – QARILIK EMAS

Ayollarimizda eng ko'p uchraydigan ajin – mimik ajinlardir. Chunki yuz mimikasi yordamida o'z hissiyatlarini namoyon etish insonga xosdir. Yuzimizdagi mushaklarning doimiy harakatlanishi natijasida esa mimik ajinlar kelib chiqadi. Misol uchun, kimdir peshonasini ko'p tirishtiradi, kimdir burnini jiyiradi, yana kimdir esa ko'p kuladi. Bunday holatlarda yuz mushaklarining harakatlanishi tufayli ajinlar paydo bo'la boshlaydi. Mimik ajinlar odatda peshona, ko'z atrofi, lab va burunda kuzatiladi.

Shuningdek, yana bir turdagi ajinlar borki, ular asosan yosh o'tganda, ya'ni 40 yoshdan so'ng ko'zga ko'rina boshlaydi. Yosh o'tib, qon aylanish tizimining sustlashishi tufayli teridagi kollagen va elastin tolalari, gialuron kislotasi sintezi keskin pasayadi. Bunday o'zgarishlar o'z o'rnida teri elastikligi va tarangligini kamayishiga olib keladi. Terining og'irlik kuchi natijasida tortilishi sabab to'qimalar pastga tusha boshlaydi va statik ajinlar hosil bo'ladi.

Ajin tushishining oldini olish uchun sog'lom hayot tarziga amal qilish, to'g'ri ovqatlanish, mehnat va dam olishni tartibli tashkil qilish kerak. Bunda sport bilan muntazam shug'ullanish, badanni oftobda me'yori bilan toblash, yuzni kuchli shamol, issiq va sovuqdan himoyalash lozim. Yuz, bo'yin, qo'l terisini muntazam parvarish qilish shart. Yuzni vaqti-vaqti bilan massaj qildirish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Shu bilan birga, ajinlarni bartaraf etishda, asosan teri turiga mos parvarish vositalaridan to'g'ri foydalanish talab etiladi. Birinchi navbatda, terini namlantirish hamda oziqlantirish kerak. Buning uchun shunday xususiyatga ega kremlardan teri turiga va yoshiga mos ravishda foydalanish lozim. Qolaversa, quyoshning ultrabinafsha hamda infraqizil nurlaridan ham himoyalaniish zarur. Ajinlarni kamaytirishga yuz mushaklari gimnastikasi ham katta yordam beradi. Bunday mashqlar yuz mushaklarini tetiklashtirib, mustahkamlaydi va terida qon aylanishini yaxshilaydi.

Teri namligining pasayishi ajin paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biri ekanligini yuqorida aytib o'tgan edik. Tibbiyotda terini namlantirib, kerakli oqsil, vitamin va mikroelementlar bilan to'yintiruvchi usullar mavjud. Shuningdek, uning qatoriga mezoterapiya usulini ham qo'shishimiz mumkin. Mezoterapiya yordamida kerakli moddalarni teriga kiritib, mikroelementlar va vitaminlar bilan oziqlantirish mumkin.

RAXIT KASALLIGI

Bir umrlik asoratlarni qoldiruvchi raxit xastaligi faqat kichik yoshdagi bolalarda uchraydi. U bola organizmida D vitamini yetishmasligi natijasida kelib chiqadi. Bolaning rivojlanishi, xususan, suyakning o'sishi va mustahkam bo'lishi uchun organizmga kalsiy va fosfor elementlari zarur bo'ladi. D vitamini esa kalsiy va fosforning ichakdan so'rilishi, ularning suyak, mushak va boshqa a'zo to'qimalariga yetib borishini boshqaradi.

Agar organizmida D vitamini yetishmovchiligi kuzatilsa, bolaning kalsiy va fosfor elementlariga bo'lgan ehtiyoji qondirilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, raxitni keltirib chiqaradi. Ko'pincha ushbu kasallik kech kuz va qish oylarida tug'ilgan bolalarda uchraydi. Sababi, bu paytda tug'ilgan bola uchun quyosh nuri yetarli bo'lmaydi. Raxit kasalligidan saqlanish uchun quyoshli kunlarda ertalab bolani ochiq havoga olib chiqish juda foydali.

Ochiq havodagi sayr bolani chiniqtirish bilan birga organizmida D vitamini ishlab chiqarilishini kuchaytiradi. Hattoki, homilador ayolning quyosh nuridan bahramand bo'lishi ham farzandida D vitamini yetishmovchiligi bo'lmasligida muhimdir. Shuningdek, bolaga D vitaminiga boy oziq-ovqatlar: mol go'shti, ayniqsa, baliq, tuxum hamda jigar mahsulotlarini berish ham uning raxit kasalligiga chalinmasligini ta'minlaydi. Go'dakka qo'shimcha mahsulotlar berilmaydigan davrda ona D vitaminiga boy,

kalsiyga to'yingan oziq-ovqat: sut va sut mahsulotlari, turshak, loviya, xurmo, ko'k piyozni muntazam iste'mol qilsa, ushbu moddalar ona suti bilan birga farzandiga o'tadi va uning sog'lom bo'lishiga zamin yaratadi.

Raxitga chalingan bolalar ko'p bezovta bo'ladi. Bot-bot qaysarlik va injiqlik qiladi. Chiroq yoqilishi, quloqqa chalingan kutilmagan tovushdan doim cho'chib tushadigan bo'lib qoladi.

Bunday holatlarda tezda shifokorga murojaat qilish zarur. Kasallikni bolaning gavda tuzilishidagi nomutanosibliklardan ham aniqlash mumkin.

Agar bolada raxit xastaligi belgilari sezilsa, darhol shifokorga murojaat qilish kerak. Chunki ushbu xastalikni davolash alohida muolajalarni talab etadi. Agar boshlang'ich holati bo'lsa, D vitamini dorilari va boshqa kalsiyni ko'paytiruvchi vositalarni iste'mol qilishning o'zi yetarli bo'ladi. Ammo kasallik zo'rayishining oldini olish



uchun bir necha choralarni ham ko'rish mumkin. Xususan, zarur bo'lgan hollarda shifokorning tavsiyasiga muvofiq davo gimnastikasi, massaj, kvarts lampasi bilan nurlantirish amaliyotlari o'tkaziladi. Davo choralari va maxsus dori-darmonlarni faqatgina mutaxassisning tavsiyasi bilan iste'mol qilish mumkin.

Kasallikka chalingan bolalarning immuniteti tushib ketadi, oqibatda yuqumli kasalliklarga ta'sirchan bo'lib qoladi. Shuningdek, raxit kamqonlik, suyaklar yumshashi, bo'g'imlar, mushaklar bo'shashi, tishlar kech va bir tekis chiqmasligiga olib keladi. Uning og'ir asoratlari bolaning ancha vaqtgacha boshi va gavdasini tuta olmasligi kuzatiladi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.

	Душанбадан якшанбагача					Ўмба- лоқ ошувчи гимнаст		Ҳайвон "исм"и		Украина парла- менти		Август имти- хонлари			
	Гуноҳи йўқ		Шомилни хўжайини ("Шайта- нат")	Соч пар- дози, причёска		Спортчи ... Чусо- витина						Ашаддий рақиб		Чанқоқ, сувсира- ган	Мусо- бақа боши
						Телефон чақирув сигнали		Озар- байжон "юраги"		Шариат судьяси					
	"Тита- ник"ни чўктирган муз тоғ		"... Chrome" (интер- нет)	Белла- шув							"Тур, жўна!"		Дино- заврлар эраси		Хаста- ликдан "эсдалик"
						Бувининг умр йўлдоши					"Дорга ил!"				
Ўзум нави	Сербия пойтахти	Қади- мий ҳикоя		Дарахт тешиги				Беҳуда, фойда- сиз				Кемада- ги яшаш хонаси		Китоб ўқиш	
					Ўткир ҳидли газ	Чет эллик сайёҳ						"...-Зил" (совут- гич)			
	Кананинг "ҳамкасби"											Пастнинг акси		"... тўқмоқ!" (эртас)	
	Мамла- кат халқи		Билим, фан												
												"Оқ олтин"	Тулпор, арғумоқ		
	Хоҳиш, тилак		Чақа- лоққа аталган маросим												Россия футбол клуби
												Зилзила, шамол кучи	Моҳир, уста		
Ўсимлик томири		"Балли калла, балли ...!"		Фаро- сатли, ақлли								Пальто матоси			
					Бадбўй дезин- фекция моддаси	"Шифо- бахш" дўкон						Топилиши қийин, ...нинг уруғи		Хонадон, оила	
Қирғиз халқ достони		Мубо- ракбод этиш, табрик						Ўз дар- возасига тўп уриш		...-Манш бўғози	Покиза, тоза				
					Монте-... (шаҳар, Европа)	Фарғона вил. туман						Инспек- тор (ўзбекча)		Эрта тонг, саҳар	
	Фаришта, санам		... де Фюнес ("Фанто- мас")					"Келган бало-... шунга урсин!"				Улуғ зот			
						Никоҳни бекор қилиш	"Жойига қўй!"	Қилич- боз спортчи қуроли	Режиссёр ... Шоҳна- заров ("101 рейс")		"ОТК"дан ўтмаган махсу- лот				
	Чорасиз, мажбу- ран	Само- лётдан сакраш анжومي		Шоумен ... Яку- бович	Америка- нинг ҳалокат- ли қуюни							Аъзо (русча)	"Ватан ...гоҳ каби муқад- дасдир!"		Кения маркази (Шарқ, Африка)
				"Маугли"- даги бўрилар сардори				Хонанда Авазбек ...							
Вазмин, босиқ одам	Болли- вуд юлдузи ... Капур				Раққоса Ирода ...	Юмшоқ пат Шоира ... Ҳожиёва				"Кичкин- той ва ..." (м/ф)		Сканворд тўтиқуши			
Асал..., қовоғ...				Сезгир тола, нерв								Нобел мукофоти берилади- ган шаҳар		Ҳадисшу- нос олим ... ал- Бухорий	
	Тиббий боғлов мате- риали				Алоҳида, баъзи бир					Теле- журна- лист ... Жонузоқ					
	...-Йорк (АҚШ)		Собир у-н бошқа Собир	Шахмат- даги дуранг		Қирғи- зистон- даги дарё			Хўжайин, соҳиб		Осмон фалак				
			Жанговар ҳиндулар қабиласи				Ором, ҳордиқ чиқариш							"...-ҳаво маълумоти"	
	Океан таги			Кечадан аввал					Теннис- миз фаҳри ... Омон- муродова		Башанг эмас, оддий кийинган				



Mamlakatimizning chekka hududlaridan biri bo'lgan Qovunchi qishlog'i. Bu maskanning chor atroflari osmono'par tog'lar bilan o'ralgan, g'oyat xushmanzara bo'lib odamlarning e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Baland cho'qqilar kiftidan hatto yoz chillasida ham qorlar arimaydi. Ko'm-ko'k archazorlar bag'ridan chiqib keladigan soylar o'zining zilol suvlarini shildiratib qishloq bag'ridan oqib o'tadi.

HAQIQIY JASORAT

Bu go'shada Elmurodjon tug'ilib, voyaga yetgan. Uning qalbi ana shu soylar kabi tiniq, musaffo edi. Mardligi esa baland qoyalar kabi judayam yuksak bo'lgan.

U o'rtoqlari bilan yaylovlarda qo'y-qo'zilar ortidan chopib, to'p tepib, chillak o'ynab, kurash tushib, ot choptirib ulg'aygan. Qo'rquv nimaligini bilmay o'sgan. Birovlarga yordam berishni odat qilgan edi. Jasur bola ko'pchilikning qo'lidani kelmaydigan ishga ham doim tayyor turardi. Bundan esa o'zi ham bag'oyatda mamnun bo'lardi. Qutqaruvchilik tuyg'usi uning ruhiyatiga mos bo'lgan. Shu tuyg'u bilan ulg'ayar, bu tuyg'u uning xarakterida shakllanib borar edi.

Goho boqib yurgan qo'ylari yemish ortidan baland qoyalarga chiqib ketar, keyin qanday tushishni bilmay marab turaverardi. Shunday paytda u kimning qo'yi bo'lishidan qat'i nazar yordamga chiqardi. Qoyaga tirmashib chiqib, qo'yni olib tushardi. Ba'zida yaylovda futbol o'ynashardi. Zarb bilan tepilgan koptok soyga tushib ketgan paytlari ko'p bo'lardi. Hamma ilojisiz qarab qolgan paytda Elmurod to'pni soydan olib chiqardi.

Bir yili qish har yildagidan qattiq kelgandi. Qor qalin yog'gan edi. Sovuq, hamma yoqni muz qoplagan. Yo'llar hashar uyushtirilib ochib turilardi. Soy ustidagi ko'prikan o'tayotganida Sattor domlani oyog'i toyib, pastga sirpanib ketgandi. Yonidagilar nima bo'lganligini hali aniq tasavvur qilolmay turganida Elmurod o'rtoqlari davrasidan chopib chiqib, pastga, qorga botib qolgan o'qituvchisining ortidan sakradi va uni tepaga olib chiqqandi.

Uning jasoratlari qishloqdoshlarining ko'p hikoyalariga sabab bo'lgandi. Balki shular sababdir, u harbiy xizmatni o'tab kelganidan keyin qutqaruvchi bo'lishni

maqsad qildi. Mana shu maqsadini amalga oshirish niyatida FVV tizimiga xizmatga kirdi. Tizimda bir muddat ishlab, kasb sir-asrorlarini yanada mukammalroq o'rganish uchun o'qidi. Sinovlardan muvaffaqiyatli Elmurod qutqaruvchi vazifasiga ishga qabul qilindi.

Ezgu niyatlarining ro'yobga chiqayotganidan ko'ksi g'ururga to'lgan navqiron yigit xalqiga, ona-Vataniga sidqidildan xizmat qila boshladi. Qisqa fursatda sohaning sir-asrorlarini o'zlashtirdi. Topshiriqlarni sidqidildan ado etar, zimmasidagi mas'uliyatni hamisha chin dildan his qilardi. U namunaviy xizmati bilan tizim rahbariyati e'tiboriga tushdi, jamoasida hurmat qozondi.

Oradan yillar o'tdi. Qutqaruvchi Elmurod Saidov doimgiday xizmatga shay turardi... Navbatchilikni endi boshqa guruhga topshirish arafasida qutqaruv bo'yicha bir vaqtning o'zida bir qator xabarlar keldi. Bunday paytda jangovar holatda turgan guruh ikkiga bo'linishiga to'g'ri kelardi. Guruh ikki tarafa otlandi.

Elmurodjon uchun bu safargi qutqaruv operatsiyasi halokatli kechdi. O'sha kuni kelgan xabarga ko'ra, katta kanalga yosh bolakay cho'kkan, uning jasadini suv ostidan topish va olib chiqish lozim edi. Bu mas'uliyatli ish Elmurodning zimmasiga yuklandi. U mas'uliyatni zimmasiga oldi. Elmurod tabiatan ana shunday yigit bo'lgan edi. Unga nimaiki vazifa yuklansa, hech qachon e'tiroz bildirmas, shitob bilan topshiriqni bajarishga kirishardi. Bu safar ham shunday qildi, qolaversa, murg'ak bir bolakayning vujudi suv ostida yotibdi.

Elmurod g'avvoslik kiyimlarini kiyib, qutqaruvchilik asbob-anjomlarini qo'lga oldi.



Shu vaqt uning ko'z oldidan oilasi, yaqinlari va do'stlari o'tgan bo'lsa ajabmas.

Yoz fasli bo'lsa-da, kanal suvi sovuq, bundan tashqari, quyiga tushganing sari harorat pasayib boradi. Ikkinchidan, kanal oqimi juda tez. Har lahzada bu hol har qanday odaming harakatiga qarshi omillarni vujudga keltiradi. Shuningdek, suv ostida bosim ortishi turgan gap. Suv tiniq bo'lgani bilan atrof suv ostida kaftdek ko'rinmaydi baribir. Yarim metr atrofini zo'rg'a ilg'ash mumkin.

Elmurodjon maxsus qutqaruv arqonlari va vositalar yordamida 4 metrdan 6 metrga qadar chuqurlikkacha tushib bordi va suv osti qidiruv ishlarini olib bora boshladi. Xavfsizlik arqoni orqali yuqoriga signal yubordi. Biroq Elmurodjon yuqoriga olib chiqilganda kech bo'lgan edi. Garchi unga birinchi yordam ko'rsatilishiga qaramay, xaloskorning hayoti boy berildi...

Bu xabardan butun qishloq aholisi yig'ladi. Hali yigirma besh yoshni ham qarshilashga ulgurmagan navqiron yigit bu hayotni erta tark etgan edi. Uning izlari ana shu adirlarda hamon sezilib turardi. Mana bu soyga tushib, hammani lol qoldirgani hali hech kimning yodidan ko'tarilmagandi. Oniy lahzalarda o'zini qor ostida ko'rgan qizchaning ne bo'lganini hali anglab yetmasidan yordam berilganini o'rtoqlari unutmagandi. Onaizor fig'oni barchasini bosib ketardi. Bu qishloqda yana bir inson yig'lardi. Ammo uning yig'isini, ko'nglidagi faryodini hech kim eshitmadi. Ahdlashgan yori edi u.

Anvar QOBILOV.

Bugun butun qishloq Bahoraning antiqa nikoh to'yi haqida gapirardi... Bahora qishloqning eng suluv qizlaridan hisoblanadi. Hali maktabni tugatmasdanoq sovchilar eshik qoqib kela boshladi. Lekin otasining qat'iy qarori sovchilarning kelishiga nuqta qo'ydi. "Qizimni o'qitaman, shoshayotgan joyim yo'q. Bir hunarni mukammal egallasin, ana undan keyin gaplashamiz".



KUYOVSIZ TO'Y

unashtirildi. Zaynabxon qishloq maktabida til va adabiyot fanidan dars beradi. Kuyov bo'lmishning otasi shifokor. Ikki qizni oliy ma'lumotli qilib, turmushga berib ulgurgan Zaynabxon o'g'liga kelin qilish uchun Bahorani ko'z ostiga olib qo'ygandi.

Zaynabxon o'g'liga juda bino qo'yardi. Axir Amerikaning eng nufuzli oliygohlaridan birida tahsil olayotgan Alisherga ham qishloqning deyarli barcha qizlari pinxona oshiq edi. Bu barno yigitga yor bo'lishni har bir qiz o'zicha orzu qilardi. Afsuski, Alisher qishloqning birorta qiziga dil izhori qilmagandi. Bu Alisherni qizlar nazdida yana ham sirli, viqorli qilib qo'ygandi.

Onasi telefonda Bahorani kelin qilmoqchiligini aytganda, Alisher qizni tezda eslolmadi.

Dars tugasa ham ketmay, Bahoraning yo'lini poylab turguvchi sinfdoshlari yodiga tushdi. Qop-qora qo'ng'iroq sochlari, oppoq kulguchli yuzi yodiga tushdi-yu: "Mayli, sizga yoqqan bo'lsa... Yaxshi qizdirki, kelin qilishni orzu qilibsiz", - dedi.

Shunday qilib, biror marta ham uchrashmagan ikki yoshni unashtirishdi. Bahoraning "O'zlaring bilasizlar" degan javobidan boshqa qizlar qatori u ham Alisherni pinxona yoqtirganligini bilish qiyin emasdi.

Banoat YUNUSOVA.

davomi keyingi sonda.



Vaziyat

gazetasi

Muassis:
O'zbekiston
Respublikasi
Favqulodda
vaziyatlar
vazirligi

Bosh muharrir:
podpolkovnik
Rustam ALIMOV

Gazeta tahririyat
kompyuterxonasida
sahifalandi.

Gazeta har haftaning
payshanba kuni chiqadi.
Topshirish vaqti – 15.00
Topshirildi – 15.00

Navbatchi:
A QOBILOV

Sahifalovchi:
B SALOHIDDINOV

Tahririyatga yuborilgan
materiallar qaytarilmaydi
va izoh berilmaydi.

Mualliflar fikri
tahririyat nuqtai nazaridan
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2007-yil
3-yanvarda 0096-son raqam
bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2091-5292

Tahririyat manzili:
100084, Toshkent shahri,
Yunusobod tumani,
Sh Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.
Tel.: (71) 212-69-56
Telegram: (90) 703 00 29

Indeks:
yakka obunachilar va
tashkilotlar uchun – 382

Gazeta "Sharq NMAK"
bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent shahri,
Mirobod tumani
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy
Buyurtma № G-452
Bichimi: A3, hajmi: 2 b.t.
Adadi – 14050 nusxa